

**O‘ZLASHMA NEOLOGIZMLARYOZUV SHAKLININGNEMIS  
TILIGA MOSLASHUVIDA SODIR BO‘LADIGAN  
O‘ZGARISHLARXUSUSIDA**

**AxmedovA.B. – QarDU Nemis tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,  
(PhD)**

**Annotatsiya:** Maqola yozilish shaklini o‘zgartirgan va nemis tili orfografik tizimiga moslashgan o‘zlashma neologizmlarnio‘rganishga bag‘ishlangan.

**Tayanch so‘zlar:** anglitsizm, imlo qoidalari, ajratib yozish, qo‘shib yozish.

**Аннотация:** Статья посвящена изучению заимствованных неологизмов, изменивших форму написания и адаптированных к орфографической системе немецкого языка.

**Ключевые слова:** англицизм, правила правописания, раздельное написание, слитное написание.

**Abstract:** The article is devoted to the study of borrowed neologisms that changed the form of writing and adapted to the spelling system of the German language.

**Key words:** anglicism, spelling rules, together writing, separately writing

Grafik assimilyatsiya deganda, o‘zlashmalarning yozuv shaklini grafik vositalar yordamida boshqa tilga o‘tkazish tushuniladi. Yozilish shaklini o‘zgartirgan va nemis tili orfografik tizimiga to‘liq moslashgan anglitsizmlar soni unchalik ko‘p emas. Inglizcha o‘zlashmalar va nemischa so‘zlarning yozilish shakli, ushbu tillarning qardoshligi hamda alifbosining umumiyliги sababli mos keladi. Nemis tilida harflar, ko‘p hollarda tovush bilan mos keladi, anglitsizmlarning yozilish shaklida esa, ingliz orfografiyasiga xos konservatizm namoyon bo‘ladi.

Anglitsizmlar qabul qiluvchi til (nemis tili) tizimi ta’siri ostida grafik jihatdan quyidagi o‘zgarishlarga uchraydi:

1) anglitsizmlar nemis tiliga fonetik jihatdan assimilyatsiyalashmagan yoki qisman assimilyatsiyalashgan (to'g'ridan-to'g'ri integratsiya) holda o'zlashishi mumkin. Ular etimon talaffuzini saqlab qoladi. Bunday holatda ular faqat grafik jihatdangina moslashadi, ya'ni otlar bosh harf bilan yoziladi, qiyosl:

Longman[3], engl.	Duden [2], dt.
cash	Cash n
mingle	der Mingle
hater	der Hater

2) ba'zi bir inglizcha so'zlardagi *s* harfi nemis tilida *k* harfiga o'zgaradi:

Ingliz tili	Nemis tili
<a href="#">cryptoparty</a>	die <a href="#">Kryptoparty</a>

3) ayrim inglizcha o'zlashmalardagi *c* harfi nemis tilida *z* harfiga o'zgaradi:

Ingliz tili	Nemis tili
<i>femicide</i>	der <a href="#">Femizid</a>

4) ajratib yoziladigan o'zlashma qo'shma so'z neologizmlar nemis tilida qo'shib yoziladi:

Ingliz tili	Nemis tili
friend zone	die <a href="#">Friendzone</a>
body cam	die Bodycam

5) ajratib yoziladigan o'zlashma qo'shma so'z neologizmlar nemis tilida chiziqcha orqali ajratib yoki qo'shib yoziladi:

Ingliz tili	Nemis tili
first world problem	das <a href="#">First-World-Problem/Firstworldproblem</a>

6) ajratib yoziladigan o‘zlashma qo‘shma so‘z neologizmlar nemis tilida har bir komponenti bosh harf bilan ajratib yoziladi:

Ingliz tili	Nemis tili
tiny house	das <a href="#">Tiny House</a>
urban gardening	das <a href="#">Urban Gardening</a>

7) chiziqcha orqali ajratib yoziladigan o‘zlashma qo‘shma so‘z neologizmlar nemis tilida chiziqcha orqali ajratib yoki qo‘shib yoziladi:

Ingliz tili	Nemis tili
pop-up restaurant	das <a href="#">Pop-up-Restaurant</a> /Pop-up-Restaurant

8) nemis tiliga o‘zlashgan ayrim inglizcha qo‘shma so‘z neologizmlarda urg‘u qo‘shma so‘z tarkibidagi har ikki komponentga tushsa, so‘z ajratib, faqat birinchi komponentga tushsa qo‘shib yoziladi, qiyoslang:

Ingliz tili	Nemis tili
social bot	der Social Bot ['so:fəl 'bɔt], der Socialbot ['so:fəlbɔt]
<a href="#">fake news</a>	die <a href="#">Fake News</a> ['fe:k 'nju:s]die <a href="#">Fakenews</a> / <a href="#">Fake-news</a> ['fe:knju:s]

Nemis tilining yangi imlo qoidalari kiritilgan hujjat (Gemeinsame Erklärung zur Neuregelung der deutschen Rechtschreibung) 1996-yil 1-iyunda Vena shahrida nemis tilida so‘zlashuvchi va boshqa manfaatdor mamlakatlarning lingvistik va siyosiy sohalar vakillari tomonidan tasdiqlangan [2, 125]. Ushbu hujjat qabul qilingunga qadar 1901-yilda Berlin konferensiyasida qabul qilingan imlo qoidalari amal qilgan edi. Nemis tiliga o‘zlashayotgan neologizmlar imlosi yangi imlo qoidalariga ko‘ra me‘yorlashtiriladi, quyidagi jadval asosida qiyoslaymiz:

Inglizcha yozilishi	Nemischa meyorga mos bo‘lmagan shaklda	Nemischa meyorga mos shaklda yozilishi
---------------------	--	--

	yozilishi	
WhatsApp	Whats-App /WhatsApp/ Whats-app/ Whats app	Whatsapp WhatsApp
pop-uprestaurant	Pop-Up-Restaurant Pop-up Restaurant Pop-Up Restaurant Pop Up Restaurant	Pop-up-Restaurant Popup-Restaurant
Ransomware	Ransom-ware Ransom Ware Ransom ware	Ransomware Ransom-Ware
Darknet	Dark-Net Dark-net Dark net darknet	Darknet Dark Net

Ko‘rinadiki, hozirgi kunda nemis tiliga o‘zlashayotgan anglitsizmlar qabul qiluvchi til ta’sirida grafik jihatdan ma‘lum bir o‘zgarishlarga uchraydi.

### **Adabiyotlar**

1. Duden. Deutsches Universalwörterbuch. Hrsg. v. d. Dudenredaktion. 7., überarb. u. erw. Aufl. – Mannheim / Zürich: Dudenverlag, 2011. – 2111 S.
2. Langenscheidt, Grosswörterbuch Deutsch als Fremdsprache, Berlin, 2003. 716 S.
3. Longman Dictionary of Contemporary English [Электронный ресурс]. URL: <https://www.ldoceonline.com>.